



SIRDARYO VILOYATI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BOSHQARMASI BOSHIG'INING BUYRUG'I

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentabrdagi 637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni, "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son, "O'quvchi yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son hamda Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun tayanch o'quv rejalarini amaliyotga joriy etish maqsadida buyuraman:

2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 10-apreldagi 121-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja 1-ilovaga muvofiq;

ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati 1a-ilovaga muvofiq;

ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja 2-ilovaga muvofiq;

ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati 2a-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan birinchi namunadagi tayanch o'quv reja 3-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan birinchi namunadagi tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati 3a-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o'quv reja 4-ilovaga muvofiq;

ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati 4a-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi belgilab qo'yilsin.

4. Barcha tuman, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshliqlariga:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy qilinishi munosabati bilan tashkil etiladigan qisqa muddatli o'quv kurslarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokini ta'minlash;

2025-2026-o'quv yili davomida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tayanch o'quv reja va uning tushuntirish xatida belgilangan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejadan kelib chiqqan holda muassasa xodimlarining ish yuklamalari tarifikatsiyasi va dars jadvallarining ishlab chiqilishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

2025-yilning 30-avgust kuniga qadar 2025-2026-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejadagi yangiliklar va tushuntirish xatining mazmun-mohiyatini har bir ta'lim muassasasiga yetkazish hamda pedagogik kengash yig'ilishlarida targ'ibot ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

5. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tayanch o'quv rejani bajarish va natijalarini tahlil etib borish hamda o'qituvchilar o'rtasida dars soatlarini belgilangan tartibga muvofiq taqsimlash ishlariga barcha tuman, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlari hamda ta'lim muassasalari direktorlari shaxsan mas'ul etib belgilansin.

6. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish boshqarma boshlig'ining o'rinbosari M.Mamarasulov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqarma boshlig'i



N.Xolbayeva